



NUTQ RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA OTA-ONA VA OILANING O‘RNI.

Sheravatova Muxlisa Aqar qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro Univeritetining
Maxsus pedagogika va logopediya yo‘nalishi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ota-ona va oilaning o‘rni yoritilgan. Bolaning nutqiy rivojlanishiga oilaviy muhitning ta’siri, ota-onaning korreksion logopedik jarayondagi ishtiroki hamda uy sharoitida nutqni rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, nutq buzilishlarini bartaraf etishda ota-onalarga metodik tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ota-ona va logoped hamkorligi nutqni rivojlantirish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlangan.


Kalit so‘zlar: nutq rivojlanishi, nutq buzilishlari, ota-ona, oilaviy muhit, logopedik korreksiya, korreksion mashg‘ulotlar, bolalar nutqi, muloqot, artikulyatsion mashqlar, nutqni rivojlantirish, logoped, pedagogik hamkorlik

Abstract: This article highlights the role of parents and family in working with children who have speech development disorders. The influence of the family environment on a child’s speech development, the participation of parents in corrective speech therapy processes, and methods of developing speech at home are analyzed. In addition, methodological recommendations for parents to overcome speech disorders are developed. According to the results of the study, cooperation between parents and speech therapists is substantiated as an important factor in improving the effectiveness of speech development.

Keywords: speech development, speech disorders, parents, family environment, speech therapy correction, corrective sessions, children's speech, communication, articulation exercises, speech development, speech therapist, pedagogical cooperation

Аннотация: В данной статье освещается роль родителей и семьи в работе с детьми, имеющими нарушения речевого развития. Проанализированы влияние семейной среды на речевое развитие ребенка, участие родителей в коррекционном логопедическом процессе, а также методы развития речи в домашних условиях. Кроме того, разработаны методические рекомендации для родителей по преодолению речевых нарушений. По результатам исследования обосновано, что сотрудничество родителей и логопеда является важным фактором повышения эффективности развития речи.

Ключевые слова: речевое развитие, речевые нарушения, родители, семейная среда, логопедическая коррекция, коррекционные занятия, детская речь, коммуникация, артикуляционные упражнения, развитие речи, логопед, педагогическое сотрудничество



Bugungi kunda bolalar nutq rivojlanishidagi buzilishlar dolzarb pedagogik va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Nutq insonning muloqot vositasi bo'libgina qolmay, balki tafakkur, idrok, xotira va ijtimoiy faoliyat rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Shu sababli nutq rivojlanishidagi har qanday kechikish yoki buzilish bolaning umumiy psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq buzilishlari turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Ular biologik, psixologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, oilaviy muhit, ota-onaning bola bilan muloqoti, tarbiyaviy yondashuvi nutq rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Bolaning ilk nutqiy tajribasi oilada shakllanadi. Shu bois nutq rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlashda ota-ona va oilaning roli juda muhim hisoblanadi.

Bola tug'ilgan ilk kunlaridanoq atrofidagi nutqni eshitadi va asta-sekin uni o'zlashtira boshlaydi. Agar oilada bola bilan yetarli darajada muloqot qilinmasa, bu nutq rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin.

Oilada ijobiy psixologik muhit yaratilishi ham muhim omil hisoblanadi. Bola o'zini erkin his qilgan muhitda gapirishga ko'proq intiladi. Ota-onaning mehribonligi, sabr-toqati, bolani qo'llab-quvvatlashi nutqiy faollikni oshiradi. Aksincha, bolaning nutqini tanqid qilish, uni koyish yoki solishtirish salbiy natija beradi.

Zamonaviy texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish ham nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Televizor, telefon va planshetlar bolaning faol muloqotini kamaytiradi. Bola passiv tinglovchiga aylanib qoladi, bu esa nutqiy faollikning sustlashishiga olib keladi. Shu sababli ota-onalar bolalar bilan jonli muloqotga ko'proq e'tibor qaratishlari lozim.

Oilada birgalikdagi faoliyatlar ham nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: ertak o'qish, rasmlar asosida suhbat, birgalikda o'yinlar, qo'shiq aytish, she'r yodlash bu faoliyatlar bola lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Nutq buzilishlarini bartaraf etishda logoped va ota-onaning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Logoped mashg'ulotlari haftada bir necha marotaba o'tkaziladi, ammo bola ko'proq vaqtini oilada o'tkazadi. Shu sababli ota-ona korreksion ishning davomchisi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Ota-onaning logopedik jarayondagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- logoped tavsiyalarini bajarish
- artikulyatsion mashqlarni uyda takrorlash
- tovushlarni mustahkamlash
- bola bilan ko'proq suhbatlashish
- nutqiy o'yinlar tashkil etish

Ota-ona mashg'ulotlarni majburlashsiz, o'yin shaklida o'tkazishi lozim. Bola qiziqish bilan qatnashsa, natija samaraliroq bo'ladi.

Uy sharoitida nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashg'ulotlar samarali hisoblanadi: tilni yuqoriga ko'tarish, lablarni cho'zish, "ot chopdi" mashqi, "soat" mashqi. Bu mashqlar nutq apparatini rivojlantiradi. Hamda, bola rasmga qarab predmetlarni nomlaydi,

gap tuzadi, voqeani tasvirlaydi. Bu usul lug‘at boyligini oshiradi. Misol uchun: "Do‘kon", "shifokor", "mehmon" kabi o‘yinlar muloqotni rivojlantiradi.

Audio-vizual vositalardan foydalanish ham bolalarga nutqni o‘stirishda katta yordam beradi masalan; multfilmni muhokama qilish, audio ertak tinglash, interaktiv rasmlar bu vositalar nutqni rag‘batlantiradi.

Nutq rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar ota-onalariga quyidagi tavsiyalar beriladi:

Bola bilan har kuni suhbatlashish

Savollar berish va javob kutish

Bola nutqini sabr bilan tinglash

To‘g‘ri nutq namunalarini ko‘rsatish

Gadjetlardan foydalanishni cheklash

Bolani rag‘batlantirish

Logoped bilan muntazam aloqada bo‘lish

Uy mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish

Oilaning psixologik qo‘llab-quvvatlashi

Bola nutqidagi kamchiliklar ota-onani xavotirga solishi mumkin. Biroq ota-onaning ortiqcha tashvishi bolaga ham o‘tadi. Shu sababli ota-ona xotirjam bo‘lishi, bolani qo‘llab-quvvatlashi zarur. Bola har qanday kichik yutuq uchun maqtalishi kerak. Bu uning o‘ziga ishonchini oshiradi. Ijobiy motivatsiya nutq rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nutq rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ota-ona va oilaning o‘rni beqiyosdir. Oilaviy muhit, ota-onaning e‘tibori, logoped bilan hamkorlik nutqni rivojlantirish jarayonini tezlashtiradi. Ota-onaning faol ishtiroki korreksion ish samaradorligini oshiradi. Shu bois logopedik ishlar ota-ona bilan hamkorlikda olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Mo‘minova L.R. Logopediya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

Ayupova M.Y. Logopedik ish asoslari. – Toshkent, 2020.

Nurkeldiyeva D.A. Nutq buzilishlarini korreksiyalash metodikasi. – Toshkent, 2019.

Po‘latova D. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2021.

Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. – Moskva, 2015.